

**INGLIZ VA O‘ZBEK ONOMASTIK
LEKSEMALARINING TARJIMASI MASALALARI
("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA)**

Aliyeva Dilafro‘z Rustam qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

**ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА АНГЛИЙСКИХ И
УЗБЕКСКИХ ОНОМАСТИЧЕСКИХ ЛЕКСЕМ
(НА ПРИМЕРЕ ЭПОСА «АЛПОМЫШ»)**

Алиева Дилафруз Рустам кизи

Магистрант Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

**PROBLEMS OF TRANSLATION OF ENGLISH
AND UZBEK ONOMASTIC LEXEMAS
(IN THE EXAMPLE OF THE EPIC "ALPOMISH")**

Aliyeva Dilafroz Rustam qizi

Master student of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi



E-mail: aliyevadili@inbox.ru

tel: +998901142212

<https://orcid.org/0009-0005-2348-0901>

Annotatsiya: Ushbu maqola xalq og‘zaki ijodi namunasi – “Alpomish” dostonidagi onomastik leksemalarning ma’nolari va qo‘llanilishini atroflicha tahlil qiladi. Mazkur dostonidagi onomastik leksemalar nafaqat antroponimlarda, balki zoomimlar va fitonimlarda ham ifodalanishi mumkin. Maqolada matnning turli ko‘rinishlarida qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, maqolada ushbu leksemalar qo‘llangan misralar, ularning linvomadaniy va ijtimoiy ma’nolari ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot ishida statistik tahlillar amalga oshirilgan bo‘lib, ular ishning amaliy ahamiyatini yanada yaqqolroq namoyon etadi.

Kalit so‘zlar: onomastik birliklar, antroponimlar, zoomimlar, fitonimlar, qiyosiy tahlil, madaniy tasavvurlar.

Аннотация. В данной статье подробно анализируются значения и употребление ономастических лексем в эпосе «Алпомиш», образце народного творчества. Ономастические лексемы в этой саге могут выражаться не только в антропонимах, но и в зоонимах и фитонимах. В статье анализируется использование текста в разных формах. Кроме того, в статье рассматриваются стихи, в которых используются данные лексемы, а также их лингвокультурное и социальное значение. В ходе исследовательской работы был проведен статистический анализ, который наглядно показывает практическую значимость работы.

Ключевые слова: ономастические единицы, антропонимы, зоомимы, фитонимы, сравнительный анализ, культурное воображение.

Annotation: This article thoroughly analyzes the meanings and uses of onomastic lexemes in the epic “Alpomish”, a sample of folk art. Onomastic lexemes in this saga can be expressed not only in anthroponyms, but also in zoonyms and phytonyms. The article analyzes the use of the text in different forms. In addition, the article examines verses where these lexemes are used, as well as their linguistic, cultural and social meanings. Statistical analyzes were carried out in the research work, which clearly show the practical importance of the work.

Key words: onomastic units, anthroponyms, zoomims, phytonyms, comparative analysis, cultural imagination.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Avvalo onomastika tushunchasi xususidagi ilmiy qarashlarga murojaat qilish lozim. Ma'nolarni ifodalash ham juda muhim. Onomastika (yunoncha: *onomastikos* – ismga bog'liq, opot – ism) bo'lib, quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi [5]:

1) Tilshunoslikda otlar, ularning tarixi, tilda qo'llanilishini o'rganadi;

2) Onomiya turli xos nomlar (antroponimiya, toponimika, etnonimiya va boshqalar)ga bo'linadi. Osiyo xalqlarining oldingi joylashuvi, migratsiyalari, til va madaniy aloqalari, tillarning qadimgi holatini bilishga yordam beradi. Xalq og'zaki ijodida, ayniqsa, dostonlarda xalqning orzu-istaklari, maqsad-muddaolari, kasb-hunarlarini, atrof-muhitga bo'lgan qarashlari, qo'shni (ba'zan yondosh) xalqlar bilan munosabati va boshqa harakatlari atroflicha bayon etilgan. Xalq og'zaki ijodidagi, jumladan, "Alpomish" dostonidagi onimlar qimmatli madaniy-tarixiy yodgorlikdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, inson yaralganidan beri bir-biri bilan jamoa bo'lib, muloqot qilib yashashga ehtiyoj sezadi. Uning har tomonlama rivojlanib bugungi kundagi kamolotida xalq og'zaki ijodining ahamiyati beqiyos. Ma'lum bir millat leksikologiyasida mavjud so'zlarning qadimiyligini bilish uchun ularni o'sha yoki qo'shni xalqlar ijodida mavjudligini o'rganish yaxshi natija beradi. "Bu jihatdan "Alpomish" dostoni mazmuniga oid asosiy voqealar oltoy, tatar, boshqird, qozoq, qoraqalpoq va boshqa turkiy xalqlarda ertak, rivoyat, doston shaklida mavjud ekani asar nihoyatda qadim zamonlarda yaratilganidan darak beradi. Prof. To'ra Mirzayev doston variantlari yuzasidan olib borgan tadqiqotlarida uning "Alpomish", "Alpamis", "Alpamis botir", "Alip – manash", "Alpamsha", "Alpamisha va Barsin xiluv" kabi nomlarda atalishini qayd etadi. Hatto "Dada Qo'rqut kitobi"ning uchinchi bo'y (doston)i "Bamsi Bayrak" o'zining syujet voqealari jihatdan "Alpomish"ga yaqin turishini ta'kidlaydi. Olimlarning ma'lumot berishiga qaraganda, XIX asr oxirida Ya.F.Kal o'zbek-qo'ng'iroq urug'i aynli aymog'iga mansub baxshi Omonnazardan dutor jo'rligida doston

tinglagani va bu doston "Alpomish" dostoni bo'lishi kerakligi haqida ma'lumotlar ham bor" [4].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). Tahlil natijalariga ko'ra, "Alpomish" doston sifatida yaratilganiga ko'p asrlar o'tgan bo'lsa-da, ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, xalq boshidan kechirgan turli real voqealarda ko'plab xalqlar (qabilalar, urug'lar, elatlar) ishtirok etgan va u bir davrda sodir bo'lgan. Dostonda o'ziga xos nomlar uchrab, ular ma'noga boy hisoblanadi. Doston onomastikasida qadimgi va keyingi davrlarda yaratilgan, bugungi kunda qo'llangan otlar, ularning tizimlari, modellari va boshqa turlarini uchratish mumkin. Dostonning dostonga aylanishi munosabati bilan keyingi baxshilar xalq hayotidagi so'nggi voqealarni rivojlantirib, boyitib, epik xarakterga aylantirib, yanada bezatib, umumlashtirgan. Natijada, "Alpomish"ning xalq ijodi an'analari va badiiy tamoyillariga bo'ysunib, estetik-axloqiy yo'nalishlarga ko'ra o'zgartirildi (xalq etimologiyasi yo'nalishiga ko'ra). Makon va zamon nuqtai nazaridan o'zgarishga yuz tutib, asarni xalqqa yetkazishda boshqa stilistik usullar kabi onomastik birliklar ham badiiy vositalar vazifasini bajargan. Doston geografik yoki tarixiy asar emas, u epik ertakdir. Demak, "Alpomish"dagi nomlarni epik (yoki badiiy she'riy) xos nomlar deb hisoblash mumkin. Asarning o'ziga xos nomlari, odatda, quyidagi guruhlariga bo'linadi: toponim va gidronimlar (joy va suv nomlari): Alpomish zindoni, Murodtepa, Kasha, Samarqand, Toshkand, Turkiston, Toychi viloyati, To'qayiston, Madina, Mashriq, Arpali ko'l, Achchiq ko'l, Oyna ko'li; antroponimlar (odamlar nomlari): Alpinbiy, Alpomish/Hakimbek, Anqa polvon, Bodom bikach, Barchinoy, Boybo'ri, Boysari, Bektemir, Muhammad Mustafo, Dobonbiy, Yodgor, Jilovdor, Baxshoyish, Jamshidu Ahmad, Ko'sa sinchi, Ko'kaldosh, Ko'kaman, Tovka, Layli, Majnun, Mirkulol, Suqsuroy kaniz, Surxayil, Toychixon, Ultontoz, Qorajon, Qultoy, Yartiboy oqsoqol, Hakimbek, Yusuf, Farmonqul, Qayqubot kal, Qaldirg'ochoyim, Qalmoqshoh, Baxshoyish, Shohimardon, Jamshid, Yodgor, Parpi, Xo'ja, Xo'jai Zumrati, Mirkulol, Shohizinda, Kavsar, Karim, Bashir, Doniyor, Qambar, Ali, Molik Ahmad, Qozi, Ahror, Bosaf, G'azira shayxi Xudoydod, Rizo, Holiq, So'fi Olloyor; etnonimlar (xalq nomlari)

Boysin-Qo'ng'irotdan eli, Kashal eli, O'zbek, Xitoychalar, Qalmoq, Qozoq; zoonimlar (hayvon nomlari): Boychibor, Boyqadam, Iziquti, Ko'kdo'n, Qiyg'ir, Anqo; mifonimlar, ayniqsa, mifoantroponimlar (pir, payg'ambar, jin, dev va boshqa shunga o'xshash farishta nomlari): Shohimardon pir, Baxshoyish, Zinda pir, Imomi A'zam, Rasul Muhammad, Mustaf, Rahmon, Muhammad.

Asarning inglizcha tarjimasida antroponimlar quyidagicha keladi: *Alpinbiy, Alpomish/Khakimbek, Anqa brave, Barchinoy, Boybury/Boyburi, Boysary/Boysari, Bodom bekach, Bektemir, Muhammad Mustafa, Dobonbiy, Yodgor, Jilovdor, Bakhshoyish, Jamshid and Ahmad, Kusa, Kukaldosh, Kukaman, Tovka, Layli, Majnun, Mirkulol, Suqsur, Surkhayil, Toychikhan, Ulton/Ultontoz, Qorajon, Qultoy, Yartiboy, Khakimbek, Josef, Farmonqul, Kayqubod, Qaldirghoch/Qaldirghochoyim, Qalmoqshah, Bakhshoyish, Shohimardon, Jamshid, Yodgor, Parpi, Khuja, Khujai Zumrat, Mirkulol, Shohizinda, Kavsar, Karim, Bashir, Doniyor, Qambar, Ali, Molik, Ahmad, Qozi, Ahror, Bosaf, Ghazira Shaykh Khudoydod, Rizo, Kholiq, Sufi Olloyor.*

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). O'zbek xalqi o'tmishda ko'chmanchi hayot kechirib, asosan chorvachilik bilan shug'ullangani uchun o'z turar-joylari va yaylovlarini muntazam yangilab turganligi sababli "Alpomish"da O'rta, Sharqiy va O'rta Osiyo joy nomlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ko'plab toponimlar berilgan. "Alpomish" dostonidagi har bir xos nom xalqning dunyoni bilish va idrok etish darajasidan kelib chiqib, aniq ma'no ifodalash uchun qo'yilgan. Dostondagi onomastik leksemalar o'zbek xalqining bebaho boyligi bo'lib, undagi har bir xos nom xalq madaniyati yodgorligining o'ziga xos qimmatli shakli hisoblanadi. Mazkur doston turkologik yo'nalishda (kontekstda) ham, umumiy onomastika fonida ham alohida o'rin tutadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Katta hajmdagi ish va unga jalb qilingan keng qamrovli materiallar "Alpomish" dostonining o'ziga xosligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, lingvomadaniyat – xalq madaniyatining tilda o'rnashib, unda aks etadigan ko'rinishlarini o'rganadi, tilni madaniyat hodisasi sifatida o'rganadi, olamni milliy til orqali ko'rish, til o'ziga xos milliy mentalitetning ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Darhaqiqat til madaniyatning ahamiyatli bir bo'laki sifatida muloqot jarayonida milliy madaniyatni aks ettiradi. Tilshunoslik va madaniyatshunoslikning kesishgan qismini o'rganadigan sohadir.

Inson va tabiat uyg'unligi folklorda ustuvor hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodining alohida xususiyati ham aynan insoniyat – nabotot – hayvonot olami bilan chambarchas bog'liqligidir. Shu boisdan hayvon va parrandalar hamda ularning timsoli xalq og'zaki ijodida faol qo'llanib, insonning eng sodiq hamkori, yordamchisi sifatida gavdalanadi.

Demak, "Alpomish" dostoni va uning inglizcha tarjima matnlarini lingvistik manba sifatida atroflicha o'rganish mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: Fan, 1978. – 252 b.
2. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1988. – 234 b.
3. Иржи Л. Искусство перевода. – М.: Прогресс, 1974. – 355 с.
4. O'zbek xalq og'zaki ijodi. // <https://adabiyot.islamonline.uz/kitoblar/qollanmalar/867-uzbek-xalq-ogzaki-ijodi.html?start=15>
5. Швейцер А.Д. Теория перевода. – М.: Учитель, 1988. – 438 с.
6. Jennifer Speake. The Oxford Dictionary of Proverbs: Fifth edition. – USA.: Oxford University Press, 2007. – 658 p.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Onomastika>
8. www.ideceonline.com/./prepositions
9. www.Let.Leidenuniv.nl/hsl-shl/prepositions